O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI

**“TASDIQLAYMAN”**
**Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti**
**rektori** ____________ O.SH.Bazarov
“___” ______________ 2024 yil
Ro‘yhatga olindi № 05/01/014M
“28” avgust 2024 yil

# MAXSUS FANLARNI O‘QITISH METODIKASI

# FANINING O‘QUV DASTURI

**Bilim sohasi:** 400 000 - Biznes, boshqaruv va huquq.

**Ta’lim sohasi:** 410000 - Ijtimoiy va hulq atvorga oid fanlar;

**Ta’lim yo‘nalishi:** 70410801 - Menejment

**Qarshi 2024-yil**

| Fan/modul kodi | O‘quv yili | Semestr | Kreditlar |
|---|---|---|---|
| METTSD1.05 | 2024-2025 | 1 | 5 |
| Fan/modul turi | Ta’lim tili | | Haftadagi dars soatlari |
| | O‘zbek/ rus | | 4 |

| | Fanning nomi | Auditoriya mashg‘ulotlari (soat) | Mustaqil ta’lim (soat) | Jami yuklama (soat) |
|---|---|---|---|---|
| 1. | Maxsus fanlarni o‘qitish metodikasi | 60 | 90 | 150 |

2.

## I. Fanning mazmuni

**Fanni o‘qitishdan maqsad** - talabalarga boshqarish tamoyillari, tizimlari, usullarini yaratishni, Ilmiy-tadqiqot sohasidagi muammoli holatni baholash, harakat strategiyalarini tuzish va rivojlanish muammolarini hal qilishning innovatsion usullarini topish bo‘yicha mutaxassislikka mos bilim, ko‘nikma va malaka shakllantirishdir.

Maqsaddan kelib chiqqan holda, talabalarda nazariy bilimlar, amaliy ko‘nikmalar, iqtisodiy hodisa va jarayonlarga uslubiy yondoshuv hamda ilmiy dunyo qarashlarni shakllantirish vazifalarini bajaradi.

**Fanning vazifasi** – talabalarni ilmiy-tadqiqot asoslari bilan tanishtirish, talabalarda tashkiliy tuzilmalar rivojlanishi va faoliyat ko‘rsatishining qonuniyatlarini tushungan holda tizimli fikrlashni rivojlantirish; boshqaruv qarorlari va boshqaruv tuzilmasining maqsadi va funksiyalarini belgilash; tashkiliy tizimlarning menejmentning turli sohalaridagi muammolarini yechishning innovatsion usullarini ishlab chiqish; tizimli boshqaruvda menejerlik munosabatlarini murakkab dunyosi bilan tanishtirishdan iboratdir.

## II. Asosiy nazariy qism (ma’ruza mashg‘ulotlari)

### II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

#### 1- mavzu. Oliy ta’limdagi islohotlar

Jamiyat taraqqiyoti amalga oshirilayotgan islohotlarning ko‘lami va mantig‘iga bog‘liq. Qaysi soha e’tiborga muhtojligini ilg‘ab, chuqur va har tomonlama o‘ylanib amalga oshirilgan islohotlargina xalqning mushkulini oson, og‘irini yengil, turmushini farovon qiladi, muammolariga yechim topib beradi. Bajarilayotgan ishlar zamirida bugungi muammolarni yechish bilan birga uzoq kelajak ham ko‘zlangan bo‘lishi lozim.

### 2- mavzu. Oliy maktabda o'quv jarayonini ilmiy tashkil etish

Hozirgi kunda yetuk barkamol bilimli shahslarni kamolga yetkazish maqsadida yosh avlodga darslarda yangi zamonaviy texnalogiya talablari asosida bilim berish bilan birgalikda, ma'naviy yetuk insonlar bo'lib yetishishlariga ham katta e'tibor qaratilmoqda. Bu borada muhim ahamiyat kasb etmoqda.

### 3- mavzu. Oliy ta'lim meyoriy hujjatlari

Oliy ta'lim bakalavriat yo'nalishlarining o'quv rejalari va o'quv dasturlari umumiy o'rta va o'rta maxsus, professional ta'lim bilan uzviylik va uzluksizligi ta'minlangan holda, oliy ta'limning davlat ta'lim standartlari, bakalavriat ta'lim yo'nalishlarining malaka talablari asosida ishlab chiqiladi. O'quv rejalar tarkibiga o'zlashtirilishi majburiy bo'lgan fanlar (majburiy fanlar) bloki va tanlab o'zlashtiriladigan fanlar (tanlov fanlari) bloki kiradi.Ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari hamda tegishli sohalarning o'ziga xos xususiyatlariga muvofiq o'quv rejalaridagi bloklar tarkibi o'zgartirilishi mumkin.

### 4- Mavzu. O'quv jarayonini tashkil qilish hujjatlari

Ta'lim-tarbiya tizimi, harbiylar hayotiga o'z-o'zini anglashda, xalqning, millatning uzoq tarixiy taraqqiyot jarayonida bosib olgan murakkab yo'liga, ajdodlarimizning ma'naviy-madaniy, ilmiy, diniy, falsafiy, ma'rifiy merosiga qarashlari va g'oyalariga har bir kishining bevosita bog'liqligini chuqur va atroflicha his qilishlariga ko'maklashishi lozim. Ta'lim - boshqariladigan jarayon bo'lib, uning natijasi, asosiy jihatdan, tayyorlangan didaktik loyihaga bog'liq. O'quv loyiha esa ta'lim texnologiyasining mahsulidir.

### 5- Mavzu. Kredit modul tizimi

Kredit-modul tizimi, bu – ta'limni tashkil etish jarayoni bo'lib, o'qitishning modul texnologiyalari jamlamasi va kredit o'lchovi asosida baholash modeli hisoblanadi. Uni bir butunlikda olib borish serqirra hamda murakkab tizimli jarayon hisoblanadi. Kredit-modul tamoyilida ikkita asosiy masalaga ahamiyat beriladi: talabalarning mustaqil ishlashini ta'minlash; talabalar bilimini reyting asosida baholash.

| | |
|---|---|
| | **6- Mavzu. Ta'lim maqsadilarini belgilash maxsus fanlarni o'qitishni loyihalash va rejalshtirishning asossiy sifatida**<br>Maxsus fanlarni o'qitish muammolariga qaratilgan ilmiy izlanishlar o'tkazishdan maqsad o'qitish va o'rgatishning, samarali metodlarni ishlab chiqish va amalda qo'llash, axborot-texnik vositalarni qo'llashga doir masalalarni yechishni o'rganishdan iboratdir. Ilmiy izlanishlar olib borish uchun o'qituvchida fanning mazmunini chuqur bilishni talab etiladi. Ko'pchilik bo'lajak pedagoglar talabalik vaqtlaridayoq pedagogik izlanishlar bilan shug'ullanadilar. Fan bo'yicha metodik ko'rsatmalar, maketlar, mustaqil ishlar uchun materiallar tayyorlaydilar. Ilmiy anjuman va seminarlarda ma'ruzalari bilan qatnashib, o'zlarining pedagogik mahoratlarini oshirib boradilar.<br>**7- Mavzu. Maxsus fanlarni o'qitishda qo'llaniladigan ta'lim shakllari**<br>Ta'lim oluvchilarga har bir fandan beriladigan bilim, malaka va ko'nikmalar, ular tomonidan ongli, puxta va mustahkam o'zlashtirilgan bo'lishi shartdir. Buning uchun esa har bir fan ta'lim beruvchisi o'zi beradigan o'quv materialini o'quv rejasi, o'quv dasturi va ta'lim oluvchilarning individual yosh xususiyatlariga mos qilib tushuntirish, ta'lim oluvchilarning sezgi a'zolarini ko'proq ishtirok etishiga erishish, ko'rgazmali qurollardan, texnika vositalardan samarali foydalanish, darsda ta'lim oluvchilarni amaliy faoliyatini tashkil etish, ularni mustaqil ishlashga, mustaqil tafakkur qilishga, mantiqiy xulosalar chiqarishga erishishi katta ahamiyatga ega.<br>**8- Mavzu. Ta'lim metodlarini faollashtirish yo'llari.**<br>Ta'lim metodlari deyilganda, o'rganilayotgan materialni egallashga qaratilgan turli didaktik vazifalarni hal etish bo'yicha o'qituvchining o'rgatuvchi ishi va o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatini tashkil etish usullari yig'indisi tushuniladi. Ta'lim metodlari dastlab pedagog ongida muayyan yo'nalishdagi faoliyatning umumlashma loyihasi tarzida namoyon bo'ladi. Mazkur loyiha amaliyotga o'qituvchi va o'quvchilar faoliyatining o'zaro tutashuvi, o'qitish va o'qishga qaratilgan aniq harakatlar, amallar yoki usullar majmuasi sifatida joriy etiladi. Metod boshqa shakllarda namoyon bo'lmaydi, buning boisi ta'lim metodi o'zida umumiy holda faoliyatning didaktik modelini ifoda etadi. Didaktikada, shuningdek, ta'lim usullari atamasi ham keng qo'llanadi.<br>**9- Mavzu. Maxsus fanlarni o'qitish usulllari va shakllari.**<br>Ta'limni tashkil etish shakllari pedagogik jarayonni tashkil etishning tarixan mavjud bo'lgan, barqaror va mantiqiy tugallangan ko'rinishi bo'lib, unga muntazamlik va yaxlitlik, o'z-o'zini rivojlantirish, shaxsiylik va faoliyatli xarakter, ishtirokchilar tarkibining doimiyligi, o'tkazishning muayyan tartibi |

| | |
|---|---|
| | edication development/ Перспективы развития высшего образования.To'plam №3.T:Vita color / 2015 /151 b<br>**4.** Mirziyoev SH.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash–yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – T.: O'zbekiston, 2017. - 48 b<br>**5.** Mirziyoev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: O'zbekiston, 2017. – 488 b.<br>**Axborot manbaalari**<br>www.lex.uz - (O'zbekiston Respublikasi Qonun xujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi)<br>www.management.ru (Rossiya menejerlar assosatsiyasi rasmiy portali)<br>www.norma.uz (O'zbekiston axborot huquqiy portali)<br>www.marketing.ru (Rossiya marketologlar milliy assosatsiyasi rasmiy portali)<br>www.ziyonet.uz (Ziyonet ta'lim portali) |
| 7. | **Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan.** |
| 8. | **Fan/modul uchun ma'sular:**<br>F.A.Norqobilova – "Biznes va innovatsion menejment" kafedrasi mudiri. |
| 9. | **Taqrizchilar:**<br>Qarshi muhandislik-iqtisodiyot institute I.E.Tursunov- "Biznes va innovatsion menejment" kafedrasi professori.<br>A.T.Aliqulov- "Buxgalteriya hisobi va audit" kafedrasi mudiri i.f.f.d., dots, |

| | |
|---|---|
| | qonunlari, asosiy tushunchalar, iqtisodiy jarayonlarning xususiyatlarini ***bilishi va ulardan foydalana olishi;*** **(ko'nikma)**<br>• talaba global iqtisodiy rivojlanish jarayonlarni tahlil qilish usullarini qo'llash, iqtisodiy rivojlanish muammolari bo'yicha yechimlar qabul qilish ***ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.*** **(malaka)** |
| 4. | **VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:**<br>• ma'ruzalar;<br>• interfaol keys-stadilar;<br>• seminarlar (mantiqiy fiklash, tezkor savol-javoblar);<br>• guruhlarda ishlash;<br>• taqdimotlarni qilish;<br>• individual loyihalar;<br>• jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar. |
| 5. | **VII. Kreditlarni olish uchun talablar:**<br>joriy, oralik nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriklarni bajarish, yakuniy nazorat buyicha yozma ishni |
| 6. | **Asosiy adabiyotlar**<br>1. Usmonov B.Sh.Xabibullayev.R.A.Oliy o'quv yurtlarda o'quv jarayonini kredit modul tizimida tashkil qilish. O'quv qo'lanma.T:Tafakkur 2020-120 b<br>2. K.T.Olimov va bosh Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi, T.:Fan va texnologiya, 2013,240 b<br>3. Mavlonov.A va bosh o'quv mashg'ulotlarini tashkil etishda ma'lum texnologiay.Toshkent,2013-142b<br>4. Yo'ldoshev N.Q., Zohidov G'. Menejment. Darslik. –T., "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati" nashriyoti, 2019 y.<br>5. Frank Rothoemel Strategik Managament: Sonserts (2 edition) Ms Grav- N: Edigation 9 Yanuary. 2014 GQF. -528 p.<br>**Qo'shimcha adabiyotlar**<br>**1.**Mirziyoev SH.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi VazirlarMahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollariga bag'ishlangan majlisidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. // Xalq so'zi gazetasi. 2017 yil 16 yanvar, №11.<br>**2.**Mirziyoev SH.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: O'zbekiston, 2016. - 56 b.<br>**3.**Raxmatullayev. M.A.Oliy ta'lim taraqqiyot istiqbollari/ Perspektive of higer |

| | |
|---|---|
| | mavjudligi xosdir. Ta'lim jarayoni ishtirokchilari (ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilar)ning ma'lum belgilangan tartibda amalga oshiriladigan hamkorlikdagi faoliyatining tashqi ko'rinishi kasbiy ta'limning tashkiliy shaklini anglatadi.<br>**10- Mavzu. Maxsus fanlar bo'yicha darslarni rejalashtirish.**<br>Tajriba-amaliy mashg'ulotlardan ko'zda tutilgan maqsad ko'p jihatdan uni o'tkazish metodikasini talabalar ishiga maxsus fan o'qituvchisining rahbarlik qilish usullarini, ayrim tajriba yoki amaliy ishlarni bajarish tartibi va shu kabilarni belgilab beradi. Talabalar nazariy materialni o'zlashtirib olganlaridan, o'rganilayotgan hodisalar, jarayonlar bilan tanishganlaridan so'ng ular bilan tajriba-amaliy mashg'ulotni o'tkazish ancha oson ko'chadi.<br>**11- Mavzu. Maxsus fanlar o'qitishda qo'llaniladigan ta'lim vositalari**<br>Ta'lim vositasini tanlab olish ta'lim metodini tanlash bilan bog'liq. Agar ta'limning faol metodi(kitob bilan ishlash, mashqlar) foydalanilsa, u holda o'quv qo'llanmalari, darsliklar va ta'limning texnik vositalaridan foydalaniladi. Aynan ta'limning aktiv-texnik vositalari amaliy metodlarda foydalaniladi.<br>**12- Mavzu.Talabalarning mustaqil ish turlarini rejalashtirish**<br>Oliy ta'lim muassasalarida mustaqil ta'lim jarayonini amalga oshirishda tizimli ishlarni yo'lga qo'yish, talabalarni mustaqil ishlashga o'rgatish ijodiy va ijtimoiy faol, ijtimoiy - siyosiy hayotda mustaqil ravishda o'z o'rnini topa olish malakasiga ega bo'lgan, istiqboliy vazifalarni qo'yish va hal qilish qobiliyatiga ega bo'lgan kadrlarning yangi avlodini hakllantirishga asos bo'ladi. Shunday ekan bu maqolada talabalar mustaqil ishlarini tashkil etishda qo'llaniladigan zamonaviy shakllarini pedagogik muammolarini va ularni hal etish yo'llarini ochishga harakat qilinadi.<br>**13- Mavzu. Muammoli-ma'ruza ta'lim texnologiyasi model va texnologik xaritalarni o'rganish**<br>Muammoli vaziyat muayyan pedagogik vositalarda maqsadga muvofiq tashkil etiladigan o'ziga xos o'qitish sharoitida yuzaga keladi. Shuningdek, o'rganilgan mavzular husisiyatlaridan kelib chiqib, bunday vaziyatlarni yaratishning maxsus usullarini ishlab chiqish zarur. Shunday qilib, o'qitishda muammoli vaziyat shunchaki «fikr yo'lidagi kutilmagan to'siq» bilan bog'langan aqliy mashaqqat xolati emas. U bilish maqsadlari maxsus taqozo qilgan aqliy taranglik xolatidir. Bunday vaziyat negizida avval o'zlashtirilgan bilimlar va yangi yuzaga kelgan vazifani hal qilish uchun aqliy va amaliy harakat usullari yotadi. |

**14- Mavzu. Test topshiriqlari va uning asosiy shakllarini o'rganish**

Bu pedagogik testlashning asosiy afzalliklaridan biridir. O'quv jarayonining takrorlanuvchanligi ham aynan shunda o'z ifodasini topadi. Umuman olganda, test usuli birmuncha texnologik hisoblanadi. U bilimlarni o'zlashtirish sifatini nazorat qilishda professor-o'qituvchilar mehnat unumdorligini oshiradi va o'quv dasturini chuqur va har tomonlama o'zlashtirilishini ta'minlaydi. Pedagogik testlashning bu afzalliklari AQSHda munosib baholangan. Abiturient (talabgor)larni universitet va kollejlarga test sinovi bilan qabul qilinadi. Pedagogik testlarni keng qo'llash bo'yicha AQSH tajribasi Kanada, Yaponiya, Turkiya va boshqa ko'pgina mamlakatlarga yoyilgan.

**15- Mavzu. Maxsus fanlarni o'zlashtirishni baholashni o'rganish**

Tajriba-amaliy mashg'ulotlarini o'quv jarayonida amalga oshirishda yo'riqnomalar tizimidan foydalaniladi. Yo'riqnomalar mashg'ulotda o'tkazilish vaqtiga ko'ra kirish, joriy va yakunlovchi yo'riqnomalarga; ma'lumot berish usuliga ko'ra og'zaki va yozma yo'riqnomaga bo'linadi.

**III. Amaliy mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar**

(Laboratoriya ishlari), (Seminar mashgulotlari), (Kurs ishi), (Mustaqil ta'lim) o'quv rejada ko'rsatilgan turi (nomi) bo'yicha yoziladi)

Amaliy mashgulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Dunyo oliy ta'limdagi innovatsiyalarni o'rganish
2. Oliy ta'lim meyoriy hujjatlarini o'rganish
3. O'quv jarayonini tashkil qilish hujjatlarini o'rganish
4. Fan dasturlari va sillabuslarni tuzishni o'rganish
5. Kredit modul tizimi hujjatlarini o'rganish
6. Maxsus fanlarni o'qitish metodlarini va shakllarini o'rganish
7. Maxsus fanlarni o'qitishda pedagogik texnologiyaning asosiy elementlari
8. Interfaol ta'lim usullari,grafik organayzerlarni yaratish
9. Maxsus fanlar bo'yicha darslarni rejalashtirishni o'rganish
10. Maxsus fanlarni o'qitish jarayonida qo'llaniladigan ta'lim vositalari
11. Muammoli-ma'ruza ta'lim texnologiyasi model va texnologik xaritalarni o'rganish
12. Laboratoriya mashg'ulotini tashkil etish va o'tkazishni o'rganish
13. Talabalarning mustaqil ish turlarini o'rganish
14. Test topshiriqlari va uning asosiy shakllarini o'rganish
15. Maxsus fanlarni o'zlashtirishni baholashni o'rganish

Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir professor-o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi zarur. Mashg'ulotlar faol va interfaktiv usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

**IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar.**

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning mamlakatimizni 2017-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2018-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruzasidan kelib chiqqan holda fanning vazifalari.
2. Boshqaruv tizimida konkret bo'lim faoliyatini tadqiq qilish va baholash .
3. Tashkiliy tuzilmalarni qurish qoidalari.
4. Bo'limlarda qarorlarni qabul qilish sxemasini tashkil qilish.
5. Korxona moliyasini boshqarish mexanizmi.
6. Moliyaviy menejmentning asosiy vazifalari
7. Qarorlarni qabul qilish sxemasini tahlil qilish va korxonada boshqaruvni takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish
8. Boshqaruv tizimini kompleks tadqiq qilish
9. Boshqaruv tizimini loyihalashtirish
10. Boshqaruv qarorlarini loyihalashtirish
11. Boshqaruv tuzilmasi va qarorlarini qabul qilish tizimini tadqiqi va loyihalashtirilishi
12. Tadbirkorlik komponenti personal menejmentining asosi sifatida
13. Tadbirkorlik komponentlarini rivojlantirish
14. Korxona faoliyatini rivojlantirishda tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish
15. Menejment samaradorligi

Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdimoq qilish tavsiya etiladi.

| | |
|---|---|
| 3. | **V. Ta'lim natijalari / Kasbiy kompetensiyalari**<br>**Talaba bilishi kerak:**<br>• global iqtisodiy rivojlanish tushunchasi va asoslari, iqtisodiy rivojlanish omillari, iqtisodiy rivojlanish nazariyalari haqida ***tasavvurga ega bo'lishi;*** **(bilim)**<br>• global iqtisodiy rivojlanish nazariyalari asoslarini, iqtisodiy rivojlanish |